

## **HARRY POTTER VA HIKMATLAR TOSHI ASARI ASOSIDA PRESENT PERFECT ZAMONIDAGI FE'LLARNING ASPEKTUAL VAZIYATLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZBEK TILIDA BERILISHI**

***Kayumova Nilufar***

*SamDChTI mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “Harry Potter va Hikmatlar Toshi” asari asosida ingliz tilidagi Present Perfect zamonida qo'llanilgan fe'llarning aspektual (tus) xususiyatlari — ya'ni telik (amal yakunlangan) va atelik (amal davomiy yoki holatdagi) fe'llar — kontekst asosida tahlil qilinadi. Tahlil semantik va kontekstual yondashuv asosida olib borilib, telik va atelik holatlarning grammatik ifodalanish xususiyatlari va ularning o'zbek tilida berilish usullari o'rganiladi. Shuningdek, ushbu fe'llarning o'zbek tiliga tarjimasida qanday grammatik vositalar (qo'shimchalar) orqali telik yoki ateliklik anglatilishi aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** aspektuallik, telik / atelik, aspekt, aspektual vaziyat, perfektiv (yakunlangan) va imperfektiv (davomli), progressiv, accomplishment.

**Аннотация:** В данной статье на основе произведения «Гарри Поттер и философский камень» анализируются аспектуальные характеристики глаголов в английском языке, употреблённых во времени Present Perfect — а именно, телик (действие завершено) и ателик (действие длительное или описывает состояние). Анализ проводится на основе семантического и контекстуального подходов, изучаются грамматические особенности выражения теликности и ателикности, а также способы их передачи в узбекском языке. Кроме того, определяется, какими грамматическими средствами (аффиксами) выражаются телик и ателик при переводе этих глаголов на узбекский язык.

**Ключевые слова:** аспектуальность, телик / ателик, аспект, аспектуальная ситуация, перфектив (завершённый) и имперфектив (незавершённый), прогрессив, результативное действие.

**Abstract:** This article analyzes the aspectual properties of verbs used in the Present Perfect tense in the English language based on the novel Harry Potter and the Philosopher's Stone — namely, telic (completed actions) and atelic (ongoing or stative actions) verbs — in context. The analysis is conducted through a semantic and contextual approach, examining the grammatical expression of telicity and atelicity, as well as their representation in the Uzbek language. Furthermore, the study identifies the grammatical tools (such as affixes) used to convey telic or atelic meanings when translating these verbs into Uzbek.

**Keywords:** aspectuality, telic / atelic, aspect, aspectual situation, perfective and imperfective, progressive, accomplishment.

**Kirish.** Aspektologiyani tilshunoslikning grammatik tuzilishi va semantikasi sohasidagi fan sifatida ta'riflash mumkin, u vid (tus) yoxud "butun aspektual soha"ni o'rganadi. Bu soha tilning keng qamrovli sohalarini, shu jumladan tus farqlari bilan birga, ma'no, funktsional va semantik munosabatlar bo'yicha vidga o'xshash yoki unga yaqin hodisalarni ham o'z ichiga oladi. [1,23]

"Aspekt" atamasi zamon yoki mayl kabi boshqa fe'l kategoriyalariga qaraganda kamroq ishlatiladi. Rus va boshqa slavyan tillarida perfektiv (yakunlangan) va imperfektiv (davomli) aspektlar o'rtasidagi farq yaqqol namoyondir. [2, 45]

Ingliz tilida **"he read", "he was reading", "he used to read"** kabi shakllar o'rtasidagi farq – bu ham aspektual farq bo'lib, aspekt **ingliz tili kabi tanish tilda** ham mavjud bo'lgan kategoriya hisoblanadi.

Ingliz tilida zamon va aspekt kategoriyalari murakkab semantik munosabatlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, Present Perfekt zamonini ko'plab hollarda harakatning natijasini, tajribasini yoki davomiy holatini bildiradi. [4, 211] Ushbu maqolada "Harry Potter va Hikmatlar Toshi" asaridan olingan misollar asosida Present Perfekt zamonida qo'llangan fe'llarning aspektual (telik/atelik) turlari va ularning o'zbek tilida qanday ifodalanishi tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi — matndagi harakatning qanday tusda ifodalanganini aniqlab, tarjima va lingvistik tahlil uchun metodologik asos yaratishdir.

### NAZARIY ASOSLAR

Perfect zamon shakllari

Ingliz tilidagi Perfect zamonlar quyidagi olti shaklda mavjud: [6,76-104], [7, 247-271], [4, 209-268]

| Shakl                      | Tuzilishi                  | Misol                                                   | Ma'nosi                                         |
|----------------------------|----------------------------|---------------------------------------------------------|-------------------------------------------------|
| Present Perfect            | have/has + past participle | I have read the book                                    | Amal tugagan, natijasi bor                      |
| Past Perfect               | had + past participle      | She had left before I came                              | O'tgan zamonda boshqa amal oldidan              |
| Future Perfect             | will have + past           | They will have finished it                              | Kelajakda ma'lum vaqtgacha tugagan amal         |
| Present Perfect Continuous | have/has been + V-ing      | He has been working                                     | Amal davom etayotgan holatda                    |
| Past Perfect Continuous    | had been + V-ing           | She had been studying for hours                         | O'tgan zamonda davom etgan amal                 |
| Future Perfect Continuous  | will have been + V-ing     | By next month, I will have been working here for a year | Kelajakda ma'lum vaqt davomida davom etgan amal |

Ushbu maqola doirasida asosan Present Perfect shakliga e'tibor qaratiladi. Ammo boshqa shakllar haqida ham nazariy jihatdan umumiy ma'lumotlar berildi. | He has been working. | Amal davom etayotgan holatda.

### Aspektuallik tushunchasi

Aspektuallik (aspectuality) — fe‘l orqali ifodalangan harakatning tugallanganligi (telik) yoki davomiyligi, holatdagi bo‘lishi (atelik) ni bildiruvchi semantik kategoriya. [2, 45]

### Teliklik va ateliklik tushunchasi

Tilshunoslikda "Telik vaziyat" tushunchasi Z.Vendler (Verbs and times, 1967) tomonidan "accomplishment" deb yuritilgan. "Telik" atamasi esa ilk bor H.B.Garey (Verbal aspect in French, 1957) tomonidan kiritilgan bo‘lib, yunoncha telos — "yakun" degan so‘zdan olingan. [2, 44]

Janubiy Kaliforniya universiteti tilshunosi Bernard Komri telik va ateliklikni farqlashda juda chiroyli misol keltirgan va uni quyidagicha: John qo‘shiq aytyapti (John is singing) va John stul yasayapti (John is making a chair) kabi ikki gapda ifodalangan vaziyatlarning semantik aspektual xususiyatlarini taqqoslash orqali boshlashimiz mumkin.

Har ikkala holatda ham davomli (durativ) vaziyatlarga murojaat qilinmoqda, chunki qo‘shiq aytish ham, stul yasash ham ma‘lum bir vaqt davom etadigan (hatto davom etishi shart bo‘lgan) vaziyatlardir. Bu vaziyatlar qisqa ham, uzoq ham davom etishi mumkin — masalan, bu Johnning chidamliligi (qo‘shiq aytishda) yoki stul yasash tezligiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. [4, 209]

Biroq, bu ikki vaziyat ichki tuzilishi nuqtai nazaridan muhim farqqa ega.

Ikkinchi holatda (ya‘ni stul yasashda) shunday bir nuqta keladiki, John stulni yasab tugatadi, stul tayyor bo‘ladi va shu nuqtada bu vaziyat o‘z-o‘zidan nihoyasiga yetadi. Bu tugatish nuqtasiga qadar esa, bu vaziyat to‘xtashi mumkin emas — faqat yarim yo‘lda uzilishi mumkin.

Aksincha, John qo‘shiq aytyapti holatida bu to‘g‘ri emas: John istalgan vaqtda qo‘shiq aytishni to‘xtatishi mumkin va shunda ham biz "John qo‘shiq aytdi" deyishimiz mumkin — hatto u boshlagan qo‘shiqni oxirigacha aytmagan bo‘lsa ham.

Shunday qilib, stul yasash holatida harakat o‘z ichiga aniq bir yakuniy nuqtani oladi — ya‘ni, stul tugagan payt, bu vaziyat avtomatik ravishda tugaydi. Qo‘shiq aytish esa bunday tugash nuqtasiga ega emas, bu holat cheksiz davom ettirilishi yoki istalgan vaqtda to‘xtatilishi mumkin. Bunday aniq tugash nuqtasiga ega vaziyatlar telik (yakunli), bunday nuqtaga ega bo‘lmaganlar esa atelik (yakunsiz) deb ataladi.

### Teliklikni aniqlash usuli

Telik holatlarni quyidagicha sinab ko‘rish mumkin: agar harakatga oid progressiv (imperfektiv) shaklda ifodalangan gapdan, shu harakatning perfektiv (ya‘ni tugallangan) shakldagi gapini kelib chiqara olsak, bu holat atelik hisoblanadi [3, 191]. Aks holda, u telik bo‘ladi. Masalan: John is singing (John qo‘shiq aytyapti) → John has sung (John qo‘shiq aytdi) — **bu atelik**

John is making a chair (John stul yasayapti) → John has made a chair (John stul yasadi) — bu natija avtomatik tarzda kelib chiqmaydi — **bu telik**

John is singing — atelik

John is singing a song — telik (chunki qo‘shiqning oxiri bor)

John is singing songs — atelik (noaniq son)

John is singing five songs — telik (aniq sonli, yakunli vazifa)

Yoki:

John is drowning — telik

Cats drown if you put them in deep water — atelik (umumiy tendensiyanı bildiradi)

Ba’zida esa kontekstga qarab boshqa holatda telik bo’ladigan gaplar ham atelik bo’lishi mumkin. Masalan: John is killing Mary — odatda telik deb qaraladi, lekin agar tibbiyotda shunday rivoj bo’lsa-ki, odamni o’ldirish jarayoni qayta tiklansa, bu ham atelik holga aylanishi mumkin.

#### Telik va Atelik fe’llar

| Aspekt | Ta’rifi                        | Misol (Present Perfect)     |
|--------|--------------------------------|-----------------------------|
| Telik  | Amal yakunlangan, natijasi bor | I have broken the glass.    |
| Atelik | Davomiy, holat ifodalaydi      | I have known her for years. |

Present Perfect tarjimasida o‘zbek tilidagi qo‘shimchalar  
Ingliz tilidagi Present Perfekt zamonidagi fe’llar o‘zbek tiliga  
ko‘pincha quyidagi grammatik vositalar orqali tarjima qilinadi:

| Inglizcha shakl   | O‘zbekcha shakl            | Aspekt | Misol (EN)                  | Tarjimasi (UZ)                         |
|-------------------|----------------------------|--------|-----------------------------|----------------------------------------|
| has gone          | -di (bordi, ketdi)         | Telik  | He has gone                 | U ketdi                                |
| have seen         | -gan (ko‘rgan)             | Telik  | I have seen it              | Men uni ko‘rganman                     |
| have been waiting | -ib turibdi / -ayotgan edi | Atelik | I have been waiting         | Men kutib turibman                     |
| have lived        | -dan beri yashayman        | Atelik | I have lived here for years | Men bu yerda yillardan buyon yashayman |
| have known        | -ganman taniganman         | Atelik | I have known him for ages   | Men uni ancha vaqtdan beri taniyman    |

Bu qo‘shimchalar o‘zbek tilida harakatning davomiyligi yoki tugallanganligi (telik/atelikligi) haqida ma’lumot beradi va tarjimada Present Perfekt ma’nosini yetkazishda muhim ahamiyatga ega. "You’d think they’d be a bit more careful, but no — even the Muggles **have noticed** something’s going on." [5, 10] - Ehtiyotkorona ish tutish

o‘rniga, teskarisini qilishyapti... Hatto magllar ham nimadir bo‘layotganini **sezishdi**”.[8,16] Ushbu misolda “have noticed” tugallanganlikni bildirib o‘zbek tilida “sezishdi” –di qo‘shimchasi vositasida berilgan. Yoki “And finally, bird-watchers everywhere **have reported** that the nation’s owls have been behaving very unusually today”. [5, 8] - Endi bugungi yangiliklarga yakun yasaydigan g‘alati bir xabar. Yurtimiz ornitologlari tomonidan **berilgan ma‘lumotlarga** qaraganda, bugun hamma joyda boyqushlarning taajjubli harakati kuzatilgan” [8, 11] misolda “have reported” bugun bir marta sodir etilgan va o‘zbek tilida -gan qo‘shimchasi tugallanganlikni bildirimoqda.

Harak atga oid progressiv (imperfektiv) shaklda ifodalangan gapda biz atelik vaziyatni ko‘rib chiqamiz. Although owls normally hunt at night and are hardly ever seen in daylight, there **have been** hundreds of **sightings** of these birds flying in every direction since sunrise. [5, 8] - Ular ovga, odatda, tunda chiqib, kun yorug‘ida ko‘rinmaydi. Biroq bugun kunduzi ushbu qushlar uchib yurgan minglab **holatlar qayd etildi**. Ular erta tongdan har tomon uchib yurishdi. [8, 11]. Bu misolimizda qushlarning odatga xilof parvozi kun bo‘yi sodir etilgan va bu holat cheksiz davom ettirilishi yoki istalgan vaqtda to‘xtatilishi mumkin. Bu misolni biz atelik deb baholaymiz.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODIKA**

Manba Tahlil uchun asosiy manba: Harry Potter and the Sorcerer’s Stone (dastlabki 10 bobdan olingan 80 ta misol).

Metodika

- Present Perfect shaklida ishlatilgan barcha fe‘llar tanlab olindi.
- Har bir fe‘l kontekst asosida tahlil qilindi.
- Harakatning telik yoki atelik tusdaligi aniqlandi.
- Aspektual klassifikatsiya uchun Maslov, Yu.S. (1984), Comrie (1976), Quirk et al. (1985), Declerck (2007) ishlariga tayandik.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Telik fe‘llar (yakunlangan harakat):

- go – He has gone upstairs.
- see – I’ve never seen anything like it.
- hear – Have you heard the news?
- **break, write, find** kabi natijani bildiruvchi fe‘llar.

Atelik fe‘llar (holat yoki davomiylik):

- **live** – I have lived here for years.
- **be** – We’ve been out here for hours.
- **have** – I’ve had this book for a long time.

Statistik natijalar:

- Umumiy misollar soni: 80
  - Telik: 74 (≈ 92%)

- Atelik: 6 ( $\approx 8\%$ )

**Muhokama:** Harry Potter asarida Present Perfekt zamoni asosan telik fe'llar bilan qo'llanilgan. Bu esa harakatning tugallanganligini, natijasini ko'rsatishga xizmat qiladi. Ayniqsa hikoya janrida bu uslub voqeani aniqlik bilan taqdim etish uchun muhim. Atelik fe'llar esa holat, tajriba va davomiylikni ifodalovchi kontekstlarda uchraydi.

### **XULOSA VA TAVSIYALAR**

Ingliz tilidagi Present Perfekt zamoni kontekst asosida telik yoki atelik tusga ega bo'ladi.

Tarjimada bu farqni to'g'ri anglash matnning aniq va tabiiy chiqishini ta'minlaydi.

O'quvchilar uchun ushbu tahlil Present Perfekt zamonining turli semantik xususiyatlarini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Maslov, Yu.S. Ocherki po aspektologii. – L., 1984. – 262 s.
2. Comrie, B. (1976). Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect. Cambridge University Press.
3. Quirk, R. et al. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. Longman.
4. Declerck, R. (2007). The Grammar of the English Tense System. De Gruyter Mouton.
5. Rowling, J.K. (1997). Harry Potter and the Sorcerer's Stone.
6. Gapparov M. (2019). Ingliz tili grammatikasi. Toshkent.
7. Dadaboyeva T. (2021). Ingliz tilining oltin qoidalari. Toshkent.
8. Dolimov Sh. (2021). Garry Potter va afsonaviy tosh. Toshkent.